Og‘ir osteoporoz fonida periprotez son suyagi sinishini Kompleks davolash tajribasi

Ilmiy rahbar
Valiyev Erkin Yo‘ldoshevich
t.f.d., professor
Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi
travmatologiya va ortopediya bo‘limi mudiri.
Tel.: +998 90 185 27 02
e-mail: valiyev.erkin2023@gmail.com

Shukurov Shamshod Ravshanovich
Respublika Shoshilinch tibbiy yordam
ilmiy markazi travmpunkt bo‘limi travmatologi,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti Harbiy tibbiyot instituti erkin tadqiqotchisi
Orcid id: 0009-0003-3794-8057
Tel.: +99893 008-38-84
e-mail: shamikshukurov1992@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda og‘ir tizimli osteoporoz fonida chanoq-son bo‘g‘imi endoprotezidan keyin yuzaga kelgan periprotez son suyagi sinishlarini jarrohlik va antiosteoporotik davolash tajribasi klinik holat asosida yoritildi. Davolash taktikasini tanlashda protez barqarorligi, sinish lokalizatsiyasi, suyak sifati va bemorning metabolik-gormonal holati inobatga olindi. Plastinali ekstramedullyar osteosintez hamda operatsiyadan keyingi antiosteoporotik terapiya qo‘llanilishi natijasida qoniqarli klinik-rentgenologik natija va 6 oyda mustaqil yurish tiklanishi qayd etildi.

Kalit so‘zlar: osteoporoz, estrogen yetishmovchiligi, periprotez sinish, son suyagi, endoprotez, osteosintez, antiosteoporotik terapiya.

Kirish. Chanoq-son bo‘g‘imini endoprotezlashdan keyingi periprotez son suyagi sinishlari zamonaviy travmatologiya va ortopediyada murakkab klinik muammolardan biri hisoblanadi. Bunday sinishlarda davolash natijasi faqat suyak bo‘laklarini fiksatsiya qilish bilan belgilanmaydi. Protez barqarorligi, suyak zaxirasi, avvalgi revizion operatsiyalar, osteoporoz darajasi va bemorning metabolik-gormonal holati jarrohlik taktikasini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, estrogen yetishmovchiligi bilan bog‘liq og‘ir osteoporozda past energiyali travmadan keyin ham murakkab periprotez sinishlar yuzaga kelishi mumkin.

Material va metodlar. Klinik holat tahlili uchun og‘ir tizimli osteoporoz fonida chanoq-son bo‘g‘imi endoprotezidan keyingi periprotez son suyagi sinishlari bilan davolangan bemorning anamnestik ma’lumotlari, klinik ko‘rik natijalari, rentgenologik

va MSKT tekshiruvlari, laborator ko‘rsatkichlari, jarrohlik davolash rejasi hamda operatsiyadan keyingi kuzatuv natijalari o‘rganildi. Davolash samarasi yara bitishi, nazorat rentgenografiyada suyak bo‘laklari holati, periferik qon aylanishi va sezuvchanlik saqlanishi, umumiy ahvol barqarorlashuvi hamda 6 oylik funksional natija asosida baholandi.

Klinik holat. Anamnestik ma’lumotlarga ko‘ra, bemorda ilgari ginekologik sabab bilan radikal operatsiya bajarilgan, keyinchalik estrogen yetishmovchiligi fonida tizimli osteoporoz rivojlangan. Bemor avval ikki tomonlama chanoq-son bo‘g‘imi endoprotezlash va revizion jarrohlik amaliyotlarini boshdan kechirgan. Kam energiyali maishiy travmadan keyin ikkala son sohasida og‘riq, shish va harakat cheklanishi kuzatilgan.

Rentgenologik tekshiruvda chanoq-son bo‘g‘imlarida ikki tomonlama endoprotez mavjudligi, son suyagi protez oyoqchasi atrofida periprotez sinishlar aniqlangan. MSKT tekshiruvlarida protez chiqishi yoki metall konstruksiya sinishi belgilari qayd etilmagan. Bu holat protez barqarorligi saqlanganini taxmin qilish va revizion endoprotezlash o‘rniga osteosintez taktikasini tanlash imkonini bergan.

Davolash jarayonida son suyagi sinishlari ochiq usulda plastina bilan ekstramedullyar osteosintez qilindi. Operatsiyadan keyingi davrda kalsiy, vitamin D3, ibandron kislotasi va denosumab asosidagi antiosteoporotik terapiya tavsiya etildi. Ushbu yondashuv suyak metabolizmini qo‘llab-quvvatlash, osteoklastik rezorbsiyani kamaytirish va keyingi fragil sinishlar xavfini pasaytirishga qaratildi.

Natijalar. Operatsiyadan keyingi davrda yara birlamchi bitdi, choklar holati qoniqarli bo‘ldi. Nazorat rentgenografiyasida suyak bo‘laklari turishi qoniqarli deb baholandi. Oyoq-qo‘llarda sezuvchanlik va periferik qon aylanishi saqlangan. Bemor turar joyi bo‘yicha travmatolog nazoratida davolanishni davom ettirish uchun chiqarildi. Dinamik kuzatuvda 6 oyda bemorning mustaqil yurishi tiklangani qayd etildi.

Xulosa. Og‘ir osteoporoz fonida yuzaga kelgan periprotez son suyagi sinishlarida davolash taktikasini tanlashda protez barqarorligi, suyak sifati va metabolik-gormonal omillar birgalikda baholanishi zarur. Protez barqarorligi saqlangan holatda plastinali ekstramedullyar osteosintez asosli jarrohlik variant sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Jarrohlik davolashni antiosteoporotik terapiya bilan uyg‘unlashtirish suyak tiklanishini qo‘llab-quvvatlash, qayta sinish xavfini kamaytirish va funksional natijani yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Duncan C.P., Masri B.A. Fractures of the femur after hip replacement // Instructional Course Lectures. - 1995. - Vol. 44. - P. 293-304.

2. Marsland D., Mears S.C. A review of periprosthetic femoral fractures associated with total hip arthroplasty // Geriatric Orthopaedic Surgery & Rehabilitation. - 2012. - Vol. 3, No. 3. - P. 107-120.

3. Kanis J.A., Johnell O., Oden A., Johansson H., McCloskey E. FRAX and the assessment of fracture probability in men and women from the UK // Osteoporosis International. - 2008. - Vol. 19. - P. 385-397.

4. Camacho P.M., Petak S.M., Binkley N., et al. American Association of Clinical Endocrinologists/American College of Endocrinology Clinical Practice Guidelines for the diagnosis and treatment of postmenopausal osteoporosis - 2020 update // Endocrine Practice. - 2020. - Vol. 26, Suppl. 1. - P. 1-46.

5. Cummings S.R., San Martin J., McClung M.R., et al. Denosumab for prevention of fractures in postmenopausal women with osteoporosis // New England Journal of Medicine. - 2009. - Vol. 361. - P. 756-765.